

O'ZBEKISTONDA SUBSIDİYALARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI: IQTISODIY SOHALARGA TA'SIRI MISOLIDA

Ismoilov Shohnur Ozod o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

1-kurs talabasi

ismoilovshohnur07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot 2010-yildan 2023-yilgacha O'zbekistondagi davlat subsidiyalari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni PESTEL tizimi yordamida o'rganadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, siyosiy o'zgarishlar, xususan, 2016-yilda hukumatning almashishi subsidiya siyosatini sezilarli darajada o'zgartirib, iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatdi. Subsidiyalar ajratilishiga iqtisodiy omillar, jumladan, tarkibiy islohotlar va sanoatlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlar ta'sir ko'rsatdi. Bandlik va daromad darajasi kabi ijtimoiy jihatlar subsidiya samaradorligini shakllantirdi. Texnologik yutuqlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni optimallashtirishda, ekologik siyosat esa energiya subsidiyalarini yo'naltirishda muhim rol o'ynadi. Qonuniy o'zgarishlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga ta'sir etuvchi tartibga solish tuzatishlarini osonlashtirdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, maqsadli subsidiyalar iqtisodiy o'sishga hissa qo'shgan, ammo siyosatning samarasizligi va tashqi ta'sirlar tebranishlarni keltirib chiqargan. Tadqiqot barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun kelajakdagi subsidiya siyosatini optimallashtirish haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Subsidiyalar, iqtisodiy o'sish, kichik biznes, tadbirkorlik, iCRAFT

1. Kirish qism

2010-yildan 2020-yilgacha O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti(YaIM) 49,77 milliard dollardan 60,22 milliard dollargacha o'sdi. Bu o'sish energetika, kichik biznes va bandlik dasturlariga yo'naltirilgan keng ko'lamli davlat subsidiyalari hisobiga amalga oshdi. 2017-yilda yoqilg'i subsidiyalari 5,1 milliard dollarni (tabiiy gaz uchun 3,8 milliard, elektr energiyasi uchun 1,3 milliard) tashkil etib, bu YaIMning 12 foiziga teng bo'ldi. Ushbu subsidiyalar energiya narxlarini past darajada saqlab turdi, biroq davlat moliyasiga og'ir yuk bo'ldi. Soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tadbirkorlikni rivojlantirdi, ammo davlat yordamiga qaramlikni ham yuzaga keltirdi. Bandlik darajasini oshirishga qaratilgan islohotlar ishsizlikni kamaytirishga uringan bo'lsa-da, samarasizlik va norasmiy mehnat muammolariga duch keldi. Bunga javoban, O'zbekiston 2028-yilgacha yoqilg'i subsidiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilishni, bozor iqtisodiyotiga o'tishni hamda kichik va o'rta korxonalar siyosati va mehnat bozorini isloh qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashni rejalashtirmoqda. Jahon banki bilan hamkorlikdagi iCRAFT

kabi loyihalar ushbu o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlamoda. Ushbu maqolada energetika, kichik biznes va boshqa sohalariga berilayotgan subsidiyalarning iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi.

2.Adabiyotlar sharhi

Garchi O'zbekiston sharoitida subsidiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni to'liq tushuntirib bergan manba topilmagan bo'lsa-da, quyida turli davlatlar iqtisodiyotida ushbu bog'liqlikni ko'rib chiqqan adabiyotlar bilan tahlil qilinadi.

Subsidiya tushunchasi va uning ijobiy xususiyatlari

Subsidiya - moliyaviy yoki natura shaklidagi yordam ko'rsatish orqali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga qaratiladi, lekin u teng miqdorda qaytarilishi shart emas, biroq oluvchining ma'lum shartlarga rioya qilishi asosida taqdim etiladi (Schwartz, et al., 1995; Latif et al., 2019). Ushbu rag'batlantiruvchi choralar sanoatlashtirishni jadallashtirish, ishsizlikni kamaytirish va iqtisodiy o'zgarishlarni tezlashtirish uchun mo'ljallangan (Gebremichael, 2014). Indoneziya, Keniya, Malayziya va Turkiyada subsidiyalarning ta'siri o'rganilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat subsidiyalari investitsiyalar va iqtisodiy kengayishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan (Okoth, 2023; Ayyagari et al., 2011; Appiah-Kubi et al., 2021). Iqtisodiy o'sishda subsidiyalarning roli “Endogen o'sish nazariyasi” bilan izohlanadi, unda texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida ta'kidlanadi (Romer, 1986, 1990; Grossman va Helpman, 2001). Innovatsiyalarga yo'naltirilgan subsidiyalar ham firma, ham mintaqaviy darajada mahsuldorlikni oshiruvchi ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (Cantner et al., 2019, Abramovsky et al., 2018). Ularning 1980-yildan 2014-yilgacha Germaniya hududlari bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, innovatsion subsidiyalar mintaqaviy iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shgan, bu esa texnologik taraqqiyotni rag'batlantirishda strategik davlat investitsiyalarining muhimligini ko'rsatadi.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) bilan shug'ullanuvchi firmalarni bevosita moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi innovatsiya subsidiyalari mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish mexanizmi sifatida keng e'tirof etilmoqda, ammo ularning muvaffaqiyati mintaqaning mavjud texnologik imkoniyatlariga bog'liq ekanligini ma'lumdir (Broekel, 2015; Foray, 2015). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy tafovutlar subsidiyalarning samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanib, uning natijasidagi innovatsion faoliyat nafaqat firma darajasida foydali, balki bilimlarni tarqatish orqali yanada kengroq iqtisodiy foyda keltiradi (Rodríguez-Pose va Crescenzi, 2008; Siyanbola et al., 2017).

Subsidiyaning ehtimoliy kamchiliklari

Subsidiyalar ko'pincha iqtisodiy o'sish katalizatori sifatida ko'rilsada, ular ba'zan firmalarning ma'lum chegaradan tashqariga kengayishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Nichter va Goldmark (2009) va Gebremichael (2014) rivojlanayotgan mamlakatlardagi kichik va o'rta biznes korxonalari dastlab tez o'sishni boshdan kechirayotganini, ammo subsidiyalar ma'lum bir hajm toifasida qolishni rag'batlantirishi sababli ularning rivojlanishi sekinlashishi mumkinligini Efiopiya misolida ta'kidlaydilar. Bekker (2015) va Dang & Sui Pheng (2015) subsidiyalar xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradimi yoki aksincha, ularni siqib chiqaradimi, degan masala bo'yicha turli ilmiy yondashuvlar mavjudligini ta'kidlaydi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash xususiy sektorda R&D investitsiyalarining ortishiga olib kelishi mumkin (Montmartin & Herrera, 2015). Biroq, boshqa tadqiqotlar firmalar o'zini o'zi ta'minlaydigan biznes modellarini ishlab chiqish o'rniga davlat mablag'lariga haddan tashqari tayanishi mumkinligini ta'kidlaydi (Cantner et al, 2019; De Vroey et al., 2010)

Yuqorida keltirilgan izlanishlarning birortasi ham O'zbekiston hududida amalga oshirilmagani bois, turli masalalar hali ham aniq javobsiz qolmoqda. Shu sababli, ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishning subsidiyalarga qay darajada bog'liq ekanligini hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishga qaratilgan.

2. Tadqiqot metodologiyasi

2.1. Tadqiqot ma'lumotlar bazasi

Tadqiqotning ishonchliligi va foydaliligi ta'minlanishi uchun Jahon banki (World Bank) va O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar asos qilib olindi. Tadqiqot 2010-2023-yillar oralig'ini qamrab oladi, sababi 2007-2009-yillardagi global iqtisodiy inqirozdan keyingi tiklanish jarayonini tahlil qilish imkonini beradi.

2.2. Tadqiqot usuli

Tadqiqot subsidiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikka ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish maqsadida PESTEL tahlil usulidan foydalangan holda amalga oshirildi.

3. Natijalar

Tadqiqot davomida PESTEL tahlil usuli doirasida turli ma'lumotlar to'plandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, subsidiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikka bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda.

Siyosiy omillarning ta'siri


O'zbekistonning siyosiy manzarasi 2016-yilda mamlakat rahbariyatining o'zgarishi bilan sezilarli darajada o'zgardi. Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida iqtisodiyotda davlat aralashuvini kamaytirish va xususiy sektorni rivojlantirish maqsadida keng qamrovli iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat korxonalarini (DUK) xususiylashtirish, raqobatbardosh iqtisodiy muhit yaratish

– xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, davlat aralashuvini qisqartirish asosiy me‘zon qilib olindi.

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, davlat korxonalarini kamaytirish strategiyasi subsidiyalarning taqsimlanishiga ham bevosita ta‘sir qiladi. Bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy o‘shish jarayonlari natijasida davlatning iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvi qisqarib bordi va subsidiyalarni taqsimlash bo‘yicha yanada aniq va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv shakllandi.

Iqtisodiy omillarning ta‘siri

O‘zbekistonda subsidiyalar, ayniqsa energetika sohasida, iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi sifatida uzoq vaqt davomida qo‘llanilib kelgan. Mustaqillikdan so‘ng iqtisodiyot ma‘lum vaqt davlat aralashuvi ostida bo‘lib, qator muammolar kuzatilgan. 2016-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar ushbu muammolarni bartaraf etish hamda iqtisodiyotni liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan edi. Ushbu islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotning (YaIM) barqaror o‘shishi ta‘minlandi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmi ortdi va bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yo‘lga qo‘yildi. Bu o‘zgarishlar subsidiyalarning samarali taqsimlanishi va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.



Rasm-1: Yoqilg‘i subsidiyalarining miqdori(2010-2020)

Manba: Xalqaro energiya agentligi, <https://www.iea.org>

2010—2016-yillar oralig‘ida iqtisodiyotni liberallashtirish sa‘y-harakatlari va davlat aralashuvining bosqichma-bosqich kamayishi natijasida O‘zbekistonda energiya subsidiyalari kamaygan. 2018-yilda subsidiyalarning keskin oshishi - yoqilg‘i va elektr energetikasi sohalariga davlat tomonidan qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi natijasida yuzaga kelgan. 2020-yildagi subsidiyalar kamayishi esa bozor islohotlari davom etganini va COVID-19 pandemiyasining iqtisodiy ta‘sirini aks ettiradi. Umuman olganda, 2016-yildan keyingi iqtisodiy siyosat subsidiyalarni

optimallashtirish va aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda bozor mexanizmlariga moslashtirish yo‘nalishida davom etgan.

Ijtimoiy omillar

O‘zbekistonda olib borilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan xususiy mulk huquqini mustahkamlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish bo‘yicha qator choralarni amalga oshirdi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra 2016-yilda yangi ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni – 33 ming, 2022-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich qariyb uch barobar oshib, 93 mingga yetdi. Bu dinamika xususiy sektorning kengayishi va tadbirkorlik faoliyatining faollashganini ko‘rsatadi.

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	8643,9	8950,7	9239,7	9604,0	9950,8	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10080,6	10131,1	10373,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	412,7	426,8	426,2	450,2	464,2	469,4	479,6	486,0	532,8	532,9	524,8	521,6	528,9	547,6
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	901,2	943,2	973,8	1008,0	1042,0	1066,3	1095,2	1110,4	1035,3	1054,6	989,9	1020,0	1040,0	1071,9
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	587,7	602,6	622,2	642,6	648,5	647,2	648,2	648,7	619,8	606,9	590,5	576,8	579,6	598,4
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	298,7	310,2	323,6	336,1	348,8	360,8	372,2	378,7	384,5	427,2	418,7	434,1	422,6	427,1
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	726,6	764,1	797,9	835,7	872,6	910,0	943,9	973,9	965,8	958,1	914,1	943,7	943,8	952,4
Navoiy viloyati	Навийская область	Navoi region	227,5	231,5	246,0	249,1	253,1	254,0	254,5	250,6	229,3	227,0	207,4	214,5	209,7	222,2
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	641,4	674,8	703,6	738,6	778,0	806,9	834,6	863,9	872,3	914,7	888,4	907,7	891,9	913,8
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	1009,0	1045,5	1075,1	1129,2	1174,3	1213,9	1254,6	1286,9	1216,1	1205,5	1158,3	1174,7	1197,8	1219,5
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	588,6	623,5	653,5	688,2	720,6	747,3	778,2	802,6	781,0	814,9	770,3	785,5	773,6	776,1
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	248,0	257,2	259,6	270,5	277,5	278,6	279,8	278,4	274,2	267,4	247,5	248,7	244,1	243,0
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	839,9	869,2	901,7	938,0	971,1	984,6	989,8	968,5	898,8	897,8	833,4	853,3	843,3	872,0
Farg‘ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	1031,8	1043,9	1081,2	1129,2	1170,6	1192,5	1214,4	1229,3	1144,5	1185,0	1136,3	1164,7	1190,4	1230,1
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	475,8	497,8	509,0	518,7	557,2	573,3	590,3	599,2	573,4	591,9	567,9	574,3	579,3	609,8
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	655,0	660,4	666,3	669,9	672,3	665,6	662,2	664,4	601,0	635,0	618,2	661,0	686,1	689,4

Rasm-2: O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lgan aholi soni

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	74,5	73,9	74,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	71,1	72,3	71,0	73,7	74,8	74,5	75,1	75,1	75,6	74,9	74,2	74,2	74,1	74,5
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	81,0	82,4	82,8	83,3	83,7	83,8	84,4	84,2	81,7	82,1	80,8	80,7	80,2	80,7
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	76,5	76,8	77,3	78,5	78,8	78,5	78,5	78,5	76,5	76,1	74,9	74,2	74,3	74,5
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	78,3	79,1	80,3	81,0	81,4	81,7	81,8	80,9	79,0	79,7	78,4	78,8	77,3	77,1
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	74,8	76,1	77,0	77,9	78,7	79,6	79,9	80,0	79,0	78,5	78,1	78,5	78,2	78,1
Navoiy viloyati	Навийская область	Navoi region	55,8	56,0	58,8	59,4	60,2	60,3	60,3	59,3	56,2	55,0	51,9	52,3	51,1	52,1
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	78,7	80,2	80,7	81,7	83,0	83,3	83,3	83,5	83,0	82,8	81,6	82,2	81,0	80,9
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	82,0	82,3	81,8	83,2	83,7	84,1	84,5	84,5	83,1	82,8	81,7	81,5	80,9	81,1
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	75,0	76,3	77,5	79,0	79,9	80,3	80,9	80,9	79,4	79,6	78,2	78,4	76,9	76,8
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	77,5	78,5	77,5	79,0	79,4	79,4	79,4	78,8	77,4	76,4	74,5	74,4	72,9	71,9
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	72,7	73,4	74,2	75,3	76,3	76,8	76,9	75,1	73,2	72,8	70,8	69,8	70,0	70,6
Farg‘ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	77,0	76,3	77,3	78,9	80,0	80,3	80,5	80,6	78,9	79,4	78,4	78,5	78,7	79,1
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	78,4	79,6	79,1	78,5	82,1	82,4	82,8	82,2	80,6	80,4	79,3	79,1	78,1	78,5
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	56,8	57,1	57,3	57,5	57,6	57,0	56,6	56,7	53,1	53,7	49,7	50,2	50,0	49,4

Rasm-3: Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (2010-2023)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining ish bilan band qismi asosan kichik biznes zimmasiga to'g'ri keladi. Yuqoridagi jadvallardan ko'rish mumkinki 2010-2019-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lgan aholi soni doimiy ravishda o'sib borgan. Biroq, 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi ushbu sektorga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, hukumat tomonidan qabul qilingan qo'llab-quvvatlov choralari sababli bandlik darajasi keskin kamaymagan. 2022-yilga kelib esa, pandemiya oldingi ko'rsatkichlar to'liq tiklanib, hatto oshgan. Eng e'tiborlisi, kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy ish o'rinlariga qo'shgan hissi 74% dan pastga tushmagan, hatto pandemiya sharoitida ham bu ko'rsatkich saqlab qolinib, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lgan.

Texnologik omillar

Infratuzilmaga, jumladan, raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish O'zbekiston iqtisodiy strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Hukumat transport tarmoqlari, energetika obyektlari va raqamli infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha ulkan loyihalarni ishga tushirdi, bu esa mamlakat ichidagi bog'liqlikni oshirish va mamlakatlar bilan savdoni osonlashtirishga qaratilgan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu tashabbuslar mamlakat ichidagi bog'liqlikni oshirish va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari va undan tashqarida savdo-sotiqni osonlashtirishga qaratilgan.

Ekologik omillar

O'zbekistonning tarixan energiya subsidiyalariga tayanishi ekologik oqibatlariga, xususan, energiya iste'moli xususiyatlariga ta'sir ko'rsatdi. Energetika sohasidagi katta miqdordagi subsidiyalar samarasizlik va ortiqcha iste'molga sabab bo'ldi. Buni inobatga olgan holda, hukumat samaradorlikni oshirish va ekologik izni kamaytirish maqsadida energetika sohasini isloh qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni boshladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu sa'y-harakatlar qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishni 2017-yildagi O'zbekiston umumiy energiya balansining 13 foizidan 2023-yilda qariyb 20 foizga oshirdi.

Huquqiy omillar

Hukumat raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturini boshladi va xususiy mulk huquqini mustahkamlash va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shu jumladan xususiy investorlar uchun keng imtiyozlar beradigan erkin iqtisodiy zonalarni yaratish bo'yicha choralar ko'rdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu islohotlar 2019-yildan buyon xususiy sektor uchun yangi imkoniyatlar yaratib, 1200 dan ortiq kichik va o'rta davlat korxonalarining sotilishiga olib keldi.

4.Xulosa va kelgusi tadqiqotlarga tavsiyalar

O'zbekiston iqtisodiyoti umuman olganda qishloq xo'jaligi va xom-ashyo mahsulotlarini yetkazib berish vazifasidan asta-sekinlik bilan soqit bo'lyapti. Bu jarayonda hukumat iqtisodiy jarayonlarni o'z nazorat ostiga olgan bir vaqtda mamlakat

iqtisodiyotida davlat ulushini kamaytirishga harakat qilayotgani ko'rinadi. Aholiga ish o'rni yaratish va uni iqtisodiy himaya qilish jami ish bilan band aholining 70%dan ko'p qismi band bo'lgan kichik biznes sektori zimmasiga tushadi. Davlat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun unga tayanish esa bu sohada qay darajada mamlakat iqtisodiyotini o'sishi uchun muhim bo'g'in ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot o'rganilish davomida subsidiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik borligini va bu ishchi o'rni va davlat YalMda tutgan xissasida yaqqol aks etishi ma'lum bo'ldi.

Biroq, tadqiqot davomida subsidiyalarni iqtisodiy sektorlarga hissasi haqida aniq va ishonarli ma'lumotlar topishda qiyinchiliklar tug'ildi. Ochiq ma'lumotlar cheklanganligi bois, har bir soha qancha subsidiya olgani haqida aniq statistika qo'lga kiritilmadi. Ikkinchidan, subsidiyalar ajratishi har yilgi iqtisodiy holatdan kelib chiqilgani bois kelajakda bu jarayon qay darajada o'zgarishi mavhumligicha qoldi. Kelajakda subsidiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchilar shu jihatlarga e'tibor berishlari ahamiyatga molikdir.

Referens:

Abramovsky, L., Tyskerud, Y., Weldeabzgi, A., Keable-Elliott, I., Harris, T., Bird, N., Abrokwa, E. and Abrha Beyene, Y. (2018) 'Are corporate tax incentives for investment fit for purpose? Revisiting economic principles and evidence from low- and middle-income countries'. Available at: <https://doi.org/10.1920/RE.IFS.2018.0142>.

Appiah-Kubi, S.N.K., Malec, K., Phiri, J., Maitah, M., Gebeltová, Z., Smutka, L., Blazek, V., Maitah, K. and Sirohi, J. (2021) 'Impact of tax incentives on foreign direct investment: Evidence from Africa', *Sustainability*, 13(15), p. 8661. Available at: <https://doi.org/10.3390/SU13158661>.

Ayyagari, M., Demircuc-Kunt, A. and Maksimovic, V. (2011) Small vs. young firms across the world: Contribution to employment, job creation, and growth. World Bank Policy Research Working Paper 5631. Available at: <https://doi.org/10.1596/1813-9450-5631>.

Becker, B. (2015) 'Public R&D policies and private R&D investment: A survey of the empirical evidence', *Journal of Economic Surveys*, 29(5), pp. 917–942. Available at: <https://doi.org/10.1111/joes.12074>.

Broekel, T. (2015) 'Do cooperative research and development (R&D) subsidies stimulate regional innovation efficiency? Evidence from Germany', *Regional Studies*, 49(7), pp. 1087–1110. Available at: <https://doi.org/10.1080/00343404.2013.812781>.

Cantner, U., Dettmann, E., Giebler, A., Guenther, J. and Kristalova, M. (2019) 'The impact of innovation and innovation subsidies on economic development in German regions', *Regional Studies*, 53(9), pp. 1284-1295. Available at: <https://doi.org/10.1080/00343404.2019.1639656>.

Clements, B., Hugounenq, R. and Schwartz, G. (1995) ‘Government subsidies: concepts, international trends, and reform options’, SSRN Electronic Journal [Preprint]. Available at: <https://doi.org/10.2139/ssrn.883238>.

Dang, G. and Sui Pheng, L. (2015) Theories of economic development. Infrastructure investments in developing economies, pp. 11–26. Available at: https://doi.org/10.1007/978-981-287-248-7_2.

De Vroey, M. and Malgrange, P. (2010) ‘From the Keynesian revolution to the Klein-Goldberger model: Klein and the dynamization of Keynesian theory’.

Erick, O. (2023) ‘Effects of tax incentives and subsidies on economic growth in developing economies’, International Journal of Research and Innovation in Social Science (IJRISS), 7(7), pp. 567-581. Available at: <https://dx.doi.org/10.47772/IJRISS.2023.70744>.

Foray, D. (2015) Smart specialisation: Opportunities and challenges for regional innovation policy (Regions and Cities No. 79). London: Routledge.

Gebremichael, B.A. (2014) ‘The impact of subsidy on the growth of small and medium enterprises (SMEs)’, Journal of Economics and Sustainable Development, 5(3), pp. 178-188. Available at: www.iiste.org.

Grossman, G.M. and Helpman, E. (2001) Innovation and growth in the global economy. 7th edn. Cambridge, MA: MIT Press.

International Energy Agency (IEA) (n.d.) ‘Fossil fuel subsidies by fuel in Uzbekistan, 2010-2020’. Available at: <https://www.iea.org/data-and-statistics/charts/fossil-fuel-subsidies-by-fuel-in-uzbekistan-2010-2020>.

Latif, M.I., Rahman, H., Ahmad, H., Ahmad, F., Khurshid, M.M. and Shafique, M.N. (2019) ‘Estimation of Laffer Curve: Evidence from Pakistan’, Sarhad Journal of Management Sciences, 5(1), pp. 103–112. Available at: <https://doi.org/10.31529/SJMS.2018.5.1.7>.

LexUZ (n.d.) ‘Qonun hujjati’. Available at: <https://lex.uz/acts/-276275?ONDATE=19.06.2001%2000>.

Montmartin, B. and Herrera, M. (2015) ‘Internal and external effects of R&D subsidies and fiscal incentives: Empirical evidence using spatial dynamic panel models’, Research Policy, 44(5), pp. 1065–1079. Available at: <https://doi.org/10.1016/j.respol.2014.11.013>.

Nichter, S. and Goldmark, L. (2005) Understanding micro and small enterprise growth. USAID, Development Alternatives, Inc. microREPORT #36.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi (n.d.) ‘Kichik biznes va tadbirkorlik bo‘yicha rasmiy statistika’. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi (n.d.) ‘Milliy hisoblar bo‘yicha rasmiy statistika’. Available at: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat Portali (n.d.) ‘Mehnat bozoridagi ko‘rsatkichlar’. Available at: <https://gov.uz/oz/bv/news/view/27952>.

Romer, P.M. (1986) ‘Increasing returns and long-run growth’, Journal of Political Economy, 94(5), pp. 1002–1037. Available at: <https://doi.org/10.1086/261420>.

Siyanbola, T., Adedeji, B. and Rahman, M.M. (2017) ‘Measuring the level of women work burnout and sustainable remedial measures in garments industry of Bangladesh’, Journal of Advanced Research in Business and Management Studies, 7(2).

World Bank (n.d.) ‘Agriculture, forestry, and fishing, value added (% of GDP) - Uzbekistan’. Available at: <https://data.worldbank.org/indicator/NV.AGR.TOTL.ZS?locations=UZ>.